

TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRI TANGALARI

Ashurov Sodiqjon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: sodiqjonashurov536@gmail.com

Telefon raqami: +998915137504

Oqbo'tayev Abdulaziz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: oqbo'tayevabdulaziz@gmail.com

Telefon raqami: +998904119202

G'ulomov Jahongir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: g'ulomovjahongir@gmail.com

Telefon raqami: +998936934033

Qurbonov Hasan

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi

1-bosqich 14T-2023 guruh talabasi

Email adres: samadkdkdksks@gmail.com

Telefon raqami: +998938880539

Annotatsiya. Avvalo ushbu maqolada Temuriylar va Shayboniylar davri haqida ma'lumotlar, davlatni boshqarish tizimlari va shu bilan birgalikda joriy qilingan tangalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z. Pul islohoti, tangalar, aversi, reverse, "xulofayi rashoddin", "fulus", xalqalar, mis tangalar, misqol, "qora pul", pullar

Kirish. Tarixan nazar soladigan bo'lsak davlatni boshqarish va uni isloh qilishda Temuriylar davri aynan boshqaruvda ahamiyatli va mas'uliyatli boshqaruv tizimi sifatida hozirgi kungacha ham amaliy dastural qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Sohibqiron Amir Temur qurgan saltanat, uning dunyo tarixida tutgan o'rni ko'pchilik ma'lum. Ayni paytda uning davlat boshqaruvidagi islohotlari ham ahamiyatli bo'lib, hozirda o'rganilayotgan asosiy mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Amir Temur joriy

qilgan pul islohoti ham shular jumlasiga kiradi. Shu bilan birgalikda nafaqat Amir Temur balki Shayboniyxon davrida ham pul islohoti amalga oshirilgan va o`z davrida ham tangalarni ham ishlab chiqara oshlashgan. Hozir esa birgalikda ularning pul islohotlarini qanday amalga oshirganini va nechta tanga pullar zarb qilgani haqida ma'lumotlar berib o'tamiz. Birinchi bo'lib Sohibqiron davrida amal qilgan tangalar bilan tanishib chiqamiz. Amir Temur o'zining dastlabki hukmronlik yillaridan boshlab so'nggi Chig'atoy sulolasi xonlari hukmronligi oqibatida to'la izdan chiqqan pul muomalasi ahvoriga e'tibor qaratgan. Shu sabab mamlakat iqtisodiy ahvolini yo'lga solish maqsadida XIV asrning 80 yillari atrofida pul islohotini o'tkazadi.

Sohibqiron pul islohotining asosini ikki xil qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar: yiriklari "tanga" deb atalib, diametric 2,5-3 sm, og'irligi 6,40 gr va nisbatan kichiklari esa "miri"-deametri 1,5-1,6 sm, og'irligi 1,5 gr ni tashkil qilgan. Ya'ni bir tanga to'rt "miri"ga teng bo'lgan. Tangalardagi arab va mo'g'ul tillarida bitilgan yozuvlar ayrim farqlarga ega bo'lsada, tangalar asosan bir andazada zabt etilgan. Tangalarning aversi(old) da birinchi o'rinda chingiziylar avlodidan bo'lmish (soxta xon) Muhammad Suyurg'atmish hamda Sulton Mahmud nomi, shuningdek, mamlakat gerbi "uch doira" aksi tushirilgan.

Reversi (orqa)da "xulofayi rashoddin" (begunoh xalifalar) –Abu Bakr, Usmon, Umar va Alining nomlari hamda tanga zarb etilgan shahr va maskan keltirib o'tilgan. Bundan tashqari katta hajmdagi chakana bozor savdosi ehtiyojini qondirish maqsadida ko'p miqdorda mis chaqalar –"fulus" lar zarb ettirilgan. Bu tangalar Amir Temur nomi bilan zarb ettirilib, ular juda keng tarqalgan. Tangalar, asosan, Amir Temur nomidan Samarqand va boshqa bir qator viloyatlarda zarb ettirilgan.

Shayboniy davridagi tangalar va ularning temuriylar davrida zarb qilingan tangalar bilan qiyosi.

XV asrda o'zbeklar turkiy tilde so'zlashuvchi va chingiziy Abulxayrxon hukmronligi ostida birlashgan qabilalarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishgan. 1448 yildan boshlab Dashti qipchoqdagi o'zbeklarning Temuriylar davlatiga yurishlari Abulxayrxondan boshlanadi va Temuriylar davlatining inqirozi bilan tugaydi. Shayboniyxonlar tomonidan o'lkada ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jumladan, 1507-15-8, 1529-1530, 1583, 1598 yillarda pul islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda Shayboniyylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalar zarb etildi. Oltin tangalar esa faqatgina Abdullaxon II davrida zarb etilgan. 1507 yili Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallagach shahrning jome' masjidida pul islohoti to'g'risida farmon beradi, bu davrda Hirotda pul muomalasi chuqur inqirozga uchragan edi. Bu islohot jamiyatning boy savdogarlar qatlamini Shayboniyxon tomoniga og'dirishi kerak edi. U kumush tanga muomalasi, ishonchli savdo va o'zgarmaydigan zarbxona vada qildi. Kumush muomalasining asosida Muhammad Shayboniyxon yorlig'I bilan chiqarilgan yangi bezakli tanga yotadi. So'nggi Temuriylar tangasi misqol bilan

tenglashib, uning vazni 4,8 grammni tashkil qiladi. Shayboniyxon yangi tangasining og'irligi misqolning 1/12 qismiga teng bo'lgan. Misqolning og'irligi 5.2 grammni tashkil etgan. Shayboniyxon islohoti Temuriylarning bir misqolli tangalarini muomalada bo'lishini ta'qiqlamadi, lekin ularning qiymatini pasaytirgan edi. Mis tangalarning eng keng tarqalgan davri XVI asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Bu davrda mis tangalar "pul", "qora pul" kabi alohida atamalar bilan nomlangan. Shayboniyxonning pul islohotining tugallanishi 1508 yilga to'g'ri keladi. Shayboniyxon davlatining Samarqand va Buxoro, Marv va Niso, Saraxs va Hirot Mashhad, Nishopur, Nimruz, Kayn va Sabzavor kabi shahrlarida tangalar zarb ettirilgan. 1510 yili Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin urushlar, qattiq kelgan qish, qimmatchilik va ocharchilikni keltirib chiqardi. Shu tariq pul qarsizlanib uning vazni va qiymati tushib ketdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirda buyuk davlat arbobi nomi bilan bitilgan mashhur tangalarning eng qadimgisi 1372-1373-yillarga borib taqaladi. Ular chig'atoy tangalari andazasi bo'yicha zarb qilingan. Shu va shunga o'xshash ma'lumotlarni "O'zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo'yicha tadqiqotlar" hamda "So'nggi o'rta asrlar tangalari" kabi manbalardan olgan holda tayyorlangan ushbu maqolada barcha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqod metodologiyasi. Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi mavjud bo'lib, ular 1379-1388-yillarda Xorazm to'liq bosib olinganidan so'ng zarb etila boshlangan. Ayni vaqtda, Amir Temurning oltin tangalarida ilgari oltin tangalarda zarb qilingan "dinator" so'zi yo'q edi. Xorazm tilla tangasi kumush dinorga, ya'ni 6 dirhamga teng bo'lgan. Dinor so'zi tilla tangani emas, balki undagi kumush miqdorini, ya'ni bu tangada o'sha vaqtda amal qilingan tanga tizimidagi oltin-kumush nisbatiga binoan mavjud kumush miqdoriga teng edi. Shayboniyxon davrida zarb qilingan tangalardan farq qilgan. Lekin mis tangalari Temuriylar davrida zarb qilingan tangalarga o'xshash edi. Shayboniyxon davridagi mis(fulus) tangalar e'tiborsizlik bilan zarb qilingan. Bizgacha yetib kelgan mis tangalar yozuvlari o'chib ketganligi uchun yaxshi o'rganilmagan.

Tahlil va natijalar. Amir Temur va Temuriylar tangalari o'ziga xos uslubi: o'simlik va geometric bezaklarning mutanosibliigi; arab, mo'g'ul va turk yozuvlari bitilgan doiralar; yulduzlar burji, "baxt birjlari" bilan boshqa tangalardan farq qilgan. 1397 yildan boshlab tangalarda "taxt va davr vorisi-Muhammad Sulton" yozuvi paydo bo'ladi. U Amir Temur tomonidan taxt vorisi deb e'lon qilingandi. Ammo taxt vorisi 1403 yilda vafot etadi. Amir Temur davlatida pul chiqaradigan zarbxonalarning aksariyati pulga bo'lgan katta ehtiyoj sababli jadal sur'atlar bilan ishlagan. Shu sababli tangalarning tashqi ko'rinishiga u qadar e'tibor berishmagan. Bunda Hirot, Marg'I, Maranda, Tabris, Shemoxa, Shabonqara, Sheroz, Bag'dod, Qum, Sultoniya shahrlar Amir Temur tomonidan zarb etilgandan keyin chiqara boshlagan tangalar muhim rol

o`ynagan. Bu kabi qalbaki tangalarga Toshkent xazinasiga tegishli Sheroz tangalarini misol keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Ta'kidlash joiz, Fors Amir Temur tomonidan birinchi marta 1387 yilda egallangani va dastlabki vaqtda u yerda Suyurg`otmishxon nomi tushurilgan tangalar zarb qilingan. Qalbaki tangalar chiqarishni bartaraf qilish uchun pul chiqarishni maxsus tekshiruvchi- sohibyorlar shug`ullangan bo`lsa-da, Amir Temur shaxsan o`zi bu jarayonni qattiq nazorat qilgan. Amir Temurning pul siyosati har doim mablag` bilan ta'minlash va xazinani doimo to`ldirib turishi zarur bo`lgan ehtiyojlariga xizmat qilardi. Shunday qilib Sohibqiron Amir Temur mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish maqsadida pul islohotini o`tkazishga majbur bo`lgan hold, asosan, kumush hamda mis tangalar zarb ettirishni yo`lga qo`ygan. Bu esa qisqa vaqt ichida mamlakat hududida yagona pul tizimining shakllanishiga olib kelgan. Shu tariqa pul siyosatiga bo`lgan qarashlar va ehtiyojlar takomillashib asta sekin yo`lga qo`yila boshlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. RAHMATULLAYEV. O, SALOMOV J, "NUMIZMATIKA"- FAN VA TEXNOLOGIYALAR, 2012
2. O`LMAS OBIDALAR/O`ZBEKISTON XALQINING QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARI BO`YICHA TADQIQOTLAR/ M. IS`HOQOV, N. RAHMONOV, Q. SODIQOV, B. TO`XTIEV- T: FAN 1989-B. 98-100
3. XOLIQOV Z. JOHONGIROV B. SO`NGGI O`RTA ASRLAR TANGALARI// MOZIYDAN SADO,-№ 3-B. 26-27 2008.
4. JAMOL SALOMOV "AMIR TEMUR VA INUNG DAVRIDA ZARB QILINGAN TANGALAR" MAQOLASIDAN

